

**MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI VA  
ZAMONAVIY KONSEPSIYALARINI**

**Abdatova Shahnoza Buriyevna**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti 5-bosqich talabasi*

**Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti "Madaniyat va san'at menejmenti"  
kafedrasi dotsenti v.v.b*

**Annotatsiya:** maqolada madaniyat va san'at sohasining rivojlanish tarixi, usullari va xarakterining ahamiyati haqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, san'at, tarix, konsepsiya, ijodiy, rahbar, ijtimoiy ong, o'lka.

Madaniyat va san'at sohasi tarixi qadimiydir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadryatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fan va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit vas hart-sharoit yaratish zarur", - deb uqtiradi. Ko'rinish turibdiki, ma'naviy hayot, uning mustahkam poydevorlari haqida o'ylash hozirgi kunda ham eng muhim masalalardan biri bo'lib turibdi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ma'naviyatni yuksaltirish uchun avvalo madaniyat tarixini chuqur bilmoq, idrok etmoq zarur. Markaziy osiyo qadimdan madaniyati taraqqiy etgan o'lkalardan biri edi. Ushbu ulkan hududning markazida joylshgan ko'hna Baqtriya (hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari)ning antic madaniyati milodiy I-II asrlarga mansubdir. Baqtriya davlati qadimgi yuksak madaniyatga ega bo'lgan hind, eron, grek va rimliklar bilan doim aloqada bo'lgan. Xorazmda quldorlik jamiyati taraqqiyotida madaniyat va san'atning eng gullab yashnagan davri miloddan avvalgi IV asrdan milodiy I asrgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Hatto, X asrga kelib ham Markaziy Osiyo madaniyati G'arbiy Ovro'pa madaniyatidan ustun bo'lganligi tarixiy manbalardan ma'lum.

Bugungi inqilobiy davrda har bir xalqning milliy o'zligini anglash, o'z milliy madaniyati tarixini bilishga bo'lgan qiziqishi nihoyatda kuchayib bormoqda. Endi biz ham insoniyat o'z milliy madaniyati tarixini bilmasa, unutsa yoki mensimay qo'ysa, har qanday oliy maqsad ham amaliy hayotdan va zamindan mahrum bo'lishini yanada chuqurroq, yurakdan his qilmoqdamiz.

Darhaqiqat, vatanga muhabbat yuksak ma'naviyat mavjud joydagina tantana qiladi. Aholisi axloqsiz, millati ma'naviy qashshoq mamlakatning kelajagi bo'lmaydi. Davlatning ravnaqi hamma vaqt aqliy imkoniyatning beqiyos kuchiga, ong va tafakkur rivojiga muhtoj

ekanligini, unga tayanish va suyanish lozimligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Uni zarurat darajasiga ko'tarmoqda.

Yevropada "Madaniyat" deyilganda dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'limtarbiya berish tushinilgan. Yevropada ma'rifatchilik davrida madaniyat va sivilizatsiyaning "tanqidi" vujudga keldi. Bunda "madaniy" millatlarning buzilganligi va axloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarxal bosqichida bo'lgan xalqlar axloqining soddaligi va sofligi qarshi qo'yildi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtioiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy estetik ideal nuqtayi nazaridan munosabat bildiradi. San'atning ijtimoiy-estetik vazifalari juda keng va xilma-xil. San'at – inson uchun estetik zavq – shavq manbai, inson hayotiga go'zallik baxsh etadi, odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakillantiradi, hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi, hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi, tarbiya vositasi, hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, yomonlikdan nafratlanishga chorlaydi. Odamlar orasidagi ma'naviy ko'pri, muloqot vositasi, odamlarning badiiy estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakillantiradi. San'atning tarbiyaviy kuchi unda ifoda etilgan kechinma va obrazlarning har bir o'quvchi, tomoshabinning qalbiga kirib borishi, ularda zavqiy hissiyotlarni uyg'otishidadir. San'at barcha ijtimoiy ong shakllari singari o'z taraqqiyot qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar san'atning o'z ichki xususiyatlaridan kelib chiqsa – da, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan xalq, millat, elat, mamlakat va jahon sivilizatsiyasi darajasi bu qonuniyatlarda o'z ifodasini topadi. Har bir jamiyatning madaniyati va san'ati o'zining g'oyaviy yo'naliishiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat va san'atning tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat va san'at taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat va san'at yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadryatlaridan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan har bir yangi jamiyat o'zidan ilgarigi jamiyatning madaniy-marifiy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

Madaniyat va san'at yoshlarni ma'naviy kamolotga chorlab, inson ruhiyatining benazir chizgilarini ezbeglik, mehr, yaxshilik siyratlari bilan bezovchi, shunga da'vat qiluvchi soha ekanligiga kundan – kunga ishonchimiz ortib bormoqda. Yangi O'zbekistonda bundan olti yil avval ijtimoiy va madaniy sohada yangicha dunyoqarash asnosida ijod va ijodkor erkinligi muammolari to'liq qaytadan ko'rib chiqildi. Madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda mohiyatan yangi davflat, yangi ma'rifiy jamiyat barpo etish, unga mos qadriyat va munosabatlar tizimini shakillantirish borasida inson Qadri tamoyiliga katta e'tibor qaratdi. Hozirgi vaqtida qabul qilinayotgan Farmon va Qarorlari ana shu ijobiy o'zgarishlarga hamohang tarizda, yangidan – yangi ijobiy islohotlarning bardavomi bo'layotir. Madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim sohasida o'z iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar uchun zarur sharoitlarni yaratish hududlar hamda vazirlik va idoralar rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi shart – degan edi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston yoshlarida ezgulik g'oyalarini shakillantirish hamda qadriyatlarni mustahkamlashda madaniyat va san'at sohasining o'rni beqiyosdir. Yangi O'zbekistonda madaniyat tashkilotlarining taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilib, ularning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va mavqeyini oshirish yo'lida bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, madaniy – ma'rifiy tashkilotlar sirasiga kiruvchi madaniyat markazlarining faoliyatida yanada oldinga siljish kuzatilayotgani quvonarli.

Davlat va jamiyat taraqqiyoti boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan har bir rahbar oldiga mas'uliyatli talablarni qo'yadi. Bu talablarga rioya etmaslik muvaffaqqiyatsizlikka, belgilangan maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarning samarasizligiga sabachi bo'ladi. Rahbar ma'naviyatini shakllantirishda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi muhim o'rinni tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 464
2. Qolqanatov A. Madaniy hayotimizning ma'naviy qiyofasi // gaz. Yangi O'zbekiston. 2023-yil 17-yanvar № 10-son. – B 6
3. Ergasheva S. Madaniyat siyosati. Toshkent "Donishmand ziyosi" 2023. – B 31-33
4. Haydarov A. Ajodolarimiz merosi – milliy ma'naviyatimiz poydevori (matn) – Toshkent: Ma'naviyat. 2015. – B 32
5. Haydarov A. Madaniyat – milliy yukslish poydevori. – Toshkent: Oltin meros press. 2021. – B 478.
6. Haydarov A. Siyosiy madaniyat mas'uliyati. – Toshkent: Tafakkur. 2009
7. Haydarov A. O'zbekiston jamiyati siyosiy madaniyatida milliy – ma'naviy qadryatlarning o'rni. Avtoreferat – Toshkent: "Moziydan sado" jurnali kichik bosmaxonasi. 2005. – B. 30